

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI



ANSAMBL SINFI (an'anaviy xonandalik)

FAN DASTURI

Bilim sohasi: 200000 - Gumanitar soha

Ta'lif sohasi: 210 000 - San'at

Ta'lif yo'nalishi: 60211400 – Vokal san'ati: (An'anaviy xonandalik)

Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingen reytinglarda 1000 talik ro'yxatga kiruvchi Mukhtar Auezov South Kazakhstan University (Qozog'iston) ta'lif dasturi asosida tayyorlandi.

<https://auezov.edu.kz/rus/>

Fan/modul kodi AS1848	O'quv yili 2024-2028	Semestr 1-8	ECTS-Kreditlar 48		
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 6-4-6		
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'uotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
	Ansambl sinfi	600	840	1440	
2.	I. Fanning mazmuni <p>Fanni o'qitishdan maqsad - professional xonandalarni murakkab o'quv jarayonida voyaga yetkazish, uni ijodiy shaxs qilib shakllantirishdir. Vokal ansambl fani milliy ansambllar uchun yuqori malakali xonanda ijrochilarni tayyorlashga asoslanadi. Vokal ansambl ijrochilarining ko'p jihatdan takomil tarzda voyaga yetishida muhim rol o'ynaydi, xususan nafaqat mohir ijrochi, balki keng dunyoqarashga ega xonanda ijrochi bo'lishida o'z o'rniiga ega bo'ladi. Talabalarda san'at sohasida faoliyat olib boradigan turli tarkibdagi milliy ansambllarda mohir xonandalik yo'nalishi bo'yicha Davlat ta'lif standartlariga asoslangan holda mos bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdir.</p> <p>Fanning vazifasi - talabalarga milliy ansambllar jamoalarida ijodiy faoliyat olib borish, madaniyat va san'at ta'lif muassasalarida malakali xonanda ijrochilari tarbiyalashga o'rgatishdan iborat. Vokal ansambl fani bo'yicha o'qitish jarayonida quyidagilar amalga oshiriladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - o'zbek milliy musiqa merosi, bastakorlar ijodiga xos katta va kichik shakllardagi, turli janrlardagi musiqiy asarlarni jamoaviy ijrochilik qoidalarini uyg'unlashirgan holda yuqori darajada bajarish; - xonadalik bo'yicha yuksak ijrochilik texnika san'atini mukammal va chuqur o'zlashtirish; - ovozni asrash, parvarishlash va ovoz gigiyenasiga rioya qilish; - jamoaviy ijrochilikda bir-birini eshitish qobiliyatini yanada izchillik bilan oshirish. <p>Fanning vazifalari, musiqiy meroslarni tinglab tahlil qilish, ovoz turlari, tuslari, diapazoni, badiiy va texnik imkoniyatlari, rang-barang ijro usullari haqida aniq tasavvurga ega bo'lishlari zarur. Fagat o'zbek milliy xonandaligi va ulardan tuzilgan ansambllarni o'rganish bilan chegaralanmay, turli xalqlarning, milliy ansambllari, xor jamoalari, akademik vokal, opera ijrochiligi san'ati, orkestrlar hamda butun dunyoga keng targalgan boshqa vokal ijrochiligi to'g'risida ham kerakli bilamlarni olishlari talab etiladi.</p>				

- ansambl rahbarining badiiy ifoda yuzasidan talabini bajarish;
- ansambl ijrochiligi uslublari;
- repertuarni o'rganish;
- kontsert amaliyoti haqida tasavvurga ega bo'lishi;
- asar nota matnini varaqdan o'gishni;
- g'azal matnini tahlil qilishni;
- turli xil musiqiy asarlarning xususiyatlarini;
- ansambl ijrochiligi qonuniyatlarini;
- guruhlarning o'zaro ansambl munosabatlarini;
- o'zbek milliy xonandalik ifoda imkoniyatlarini bilishi va ulardan foydalana olishi
- ansambllarda professional ijrochilik faoliyatiga tayyorgarlik;
- asarlarni mohirona ijeo etish;
- nota matnini o'qishda adashmaslik;
- ijro dasturlarini mukammal o'zlashtirish;
- ovoz yozish studiyasida ish olib borish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Vokal ansamqli fani vokal ijrochiligi, jamoa ijrochiligi uslubiyoti, maqom asoslari va musiqiy asarlar tahlili fanlari bilan uslubiy jihatdan uzviy bog'liq holda kasbiy tayyorgarlik talablari darajasida o'zlashtirishga yo'naltirilgan bilim va ko'nikmalarni mantiqan umumlashtirishga xizmat qiladi.

II. Asosiy amaliy qism (amaliy mashg'ulotlar)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-Modul. Vokal ansamqli ijro dasturini o'zlashtirishning uzviyligi

Talabalarning xonandalik bo'yicha ko'nikmalarini tekshirish. Ijro dasturlari bilan tanishish va tanlash. Shashmaqomning Nasr bo'limi ikkinchi guruh sho'balarining Savt yoki Mo'g'ulchalaridan (tarkibiy qismilari bilan) o'rganish. Farg'ona-Toshkent yoki Xorazm maqomlari tarkibidagi murakkablik darajasi yengil bo'lган asarlardan yoki o'zbek xalq ashulalaridan o'rganish. Bastakorlar ijodiyoti yoki sharq xalqlari qo'shiqlaridan namunalar o'rganish, O'rganilgan asarlarni Sahnada ijro etishga tayyorlash.

2-Modul. Vokal ansamqli ijrochiligi_ ko'nikmalari ustida ishlash

Ijro dasturlari bilan tanishish va tanlash. Shashmaqomning Nasr bo'limi birinchi guruh sho'balarining Talqin yoki Nasrlaridan (taronalari bilan) o'rganish. Farg'ona-Toshkent yoki Xorazm maqomlari tarkibidagi murakkablik darajasi

o'rtacha bo'lgan asarlar yoki o'rtacha murakkablikdagi o'zbek xalq ashulalaridan o'rganish. Bastakorlar ijodiyoti yoki sharq xalqlari qo'shiqlaridan namunalar o'rganish. O'rganilgan asarlami sahnada ijro etishga tayyorlash.

3-Modul. Ansambl ijrochiligidagi musiqiy asarlarni tinglash va o'rganish.

Ijro dasturlari bilan tanishish va tanlash. Shashmaqomning Nasr bo'limi birinchi guruh sho'balarining Saraxborlаридан (taronalari bilan) o'rganish. Farg'ona-Toshkent yoki Xorazm maqomlari tarkibidagi murakkab asarlar yoki murakkablik darajasi yuqori bo'lgan o'zbek xalq ashulalaridan o'rganish. Bastakorlar ijodiyoti yoki sharq xalqlari qo'shiqlaridan namunalar o'rganish. O'rganilgan asarlami sahnada ijro etishga tayyorlash.

4-Modul. Ansambl ijrochiligidagi musiqiy asarlarning badiiy talqini.

Ijro dasturlari bilan tanishish va tanlash. Shashmaqomning Nasr bo'limi birinchi va ikkinchi guruh sho'balaridan yirik asarlarni (tarona va tarkibiy qismlari bilan) o'rganish. Farg'ona-Toshkent yoki Xorazm magomlari tarkibidagi murakkab asarlar yoki murakkablik darajasi yuqori bo'lgan o'zbek xalq ashulalaridan o'rganish. Bastakorlar ijodiyoti yoki sharq xalqlari qo'shiqlaridan namunalar o'raanish. O'rganilgan asarlarni sahnada ijro etishga tayyorlash.

Izoh: *Ijro dasturida belgilangan asarlarni o'rganish jarayonida amaliy mashg'ulotlarga mos ravishda quyidagi badiiy va uslubiy ko'rsatmatardan foydalanish tavsiya etiladi: Ansambl tarixi va amaliyoti bo'yicha qisqacha ma'lumotlar. Xonandalik san'atining zamonaviy amaliyoti haqida, Jamoaviy ijrockilikka xos bo'lgan mashqlar ijro etish. Notalarni varaqdan ravon o'qish. Nota matnini aniq, tekis, savodli va erkin ijro elish Ijro ko'nikmalarini takomillashtirish. Kuylash san'ati. Ovoz turlari, liro uslublari. Texnik mashqlar. Artikulyatsiva. Kuylash imkoniyatlarini va ovoz ko'lagini kengaytirish. Milliy musiqa namunalarini ijro etish uslublari. Musiqiy bezaklar. Ijro shtrixlari Vokal ijrochiligining o'ziga xosliklari. Milliy mumtoz asarlar tahlili. Musiqiy Shabl. Musiqiy asarlarni yuqori darajada ijro etishda barcha ijro usullaridan yo'naltirish. Asarlarni mohirona ijro etish ustida ishlash. Kontsert ijrochilik mahoratini shakllantirish. Davlat attestatsivasiga tayyorgarlik ko'rish.

** O'quv yili uchun belgilangan mavzular har ikki semestrda ijro dasturlari o'zlashtirilgan holda takrorlanadi.

*** Talabaning iqtidori va ijro imkoniyatidan kelib chiqqan holda o'rganiladigan asarlarning murakkablik darajasi chegaralanmaydi.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

1. Vokal ijrochiligi hagida ma'lumotlarga ega bo'lish.
2. Ijro ko'nikmalarini o'zlashtirish va shakllantirish.
3. Ijrochilik mahoratini rivojlantirish.
4. Musiqiy asarlarni sof ijro usullari ustida ishlash.
5. Badiiy asarlarni mustaqil ravishda tahlil qilib o'rganish.
6. Notadan ravon o'qish malakasi ustida ishlash.
7. Ijrochilik kotnikmalarini mukammallashtirish.
8. Sahnaviy chiqish va maxsus kontsert ko'nikmalarini rivojlantirish.

3.	<p>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none">- musiqiy asarlarnini yuksak badiiy saviyada ijro etish bilan bog'liq ijodiy ishlarni olib borish;- ulami ijro etish ko'nikmalari va zamonaviy musiqiy ifodalash vositalarini egallah;- ijro etilayotgan asarlarning mazmuni, shakli va uslubini baholash;- turli xil jamolarni biriktirgan holda musiqiy asarlarning ijrosiga rahbarlik qila olish;- musiqiy asarlarning badiiy konsepsiyasini yaratib, teatr-konsert muassasalari va ansamblarida namoyish qilish;- musiqaning mazmuni, shakli va uslubini tushunish;- ijrochilik va improvizatsiya ifodalilikni vositalari, musiqaning mazmuni, shakli va uslubini, tushunish;- ijro etilayotgan asarning musiqiy obrazi, shakli va ma'nosini tinglovchiga yetkazishni;- o'zining shaxsiy ijro uslubini yaratish;- jamoa ijrochiligi gobiliyatiga ega bo'lish.
----	--

VI.Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- audio va video yozuvlardan foydalanish;
- treninglar;
- nota o'qish mahorati;
- bilaman, bilishni xoxlayman, bilib oldim metodi;
- texnik mashqlar ustida ishlash;
- Ven diagrammasi metodi;

	<ul style="list-style-type: none"> - individual ijro yo'llar; - mantiqiy fikrlash;
5.	<p style="text-align: center;">VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy, amaliy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil qilish natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>
6.	<p style="text-align: center;">Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari</p> <p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. K.Bo'riyeva. "Xonandalar ansambl". Toshket-2017 2. M.Solihova. "Xonandalar ansambl", Toshket-2012 3. M.Yo'lchiyeva. "Magom xonandaligi". Toshket-2019 4. M.Ermatov. "An'anaviy xonandalik". Toshket-2009 5. S.Azizboyev Ansambl sinfi, O*quy-qo'llanma. T., 2018. 6. S.Begmatov, N.Qodirov Ansambt sinfi. O'quy-qo'llanma. T., 2007. 7. YuRajabiy. O*zbek xalq musiqasi I, I, II, IV, V tomlar. T., 1959. 8. Yu.Rajabiy. Shashmagom I, If, I, IV, V, VI tomlar. T., 1975 9. Mamadaliev F.Milliy musiga ijrochiligi masalalari.—T., 2001. 10. A, Lutfullaev "Xalq cholg'ularida ijrochilik: tarix va zamonaviylik" T., Musiga nashriyoti 2017, 11. The History of Muzikal Instruments USA November (2012). 12. Barbara Kreader, Fred Kern, 'hailli' Keveren, Mona Rejino. 'iano Lessons Book 2001 <p style="text-align: center;">Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi mustagilligining 30 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruza, 2021-yil 31 avgust. 2. Mirziyoyev Sh.M. "O'zbek maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3193. 2017 yil.. 17 noyabr. 3, Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalgimiz bilan birga quramiz. T, 2017 4. Mirziyoyev ShM. Erkin va farovon, Demokratik O'zbekiston davlatini birligida barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga

kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatasining qo'shma majlisidagi nut. T., 2017.

5. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini takomintash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul ilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruza. 2016- yil 7-dekabr. T., 2017.

6. Mirziyoyev ShM, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini Tivojlantirishning beshta_ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi. (elektron versiyesi)

7. Bloem-Hubatka D. The old Italian Schol of Singing. A Theoretical and practical Guide. London, 1946

8. Miller R. The Structure of singing. System and art vokal texhnique. USA 2016

9. A. Lutfullaev "Xalq cholg'ularida ijrochilik: tarix va zamonaviylik" T., Musiqa nashriyoti 2017.

10. The History of Muzikal Instruments USA November (2012).

11. Barbara Kreader, Fred Kern, 'hailli! Keveren, Mona Rejino. 'iano Lessons Book 2001

12. Kpyntseaa T.C, Mozoxona HB, «Cnosapt HHocTpaHHErx MY3bIKAMbHEX repminiosy JI, «Myseixa, 1997,

Axborot manbalari

1. www.maqomfund.uz — maqom kutubxonasi
2. www.notalar.uz — O'zbekistonning musiqali kutubxonasi
3. <http://www.zyonet.uz>
4. www.musika.uz
5. <http://notes.tarakanov.net>
6. www.lex.uz
7. www.zyonet.uz

7.

Fan dasturi Buxoro davlat universiteti Ilmiy kengashining 2024 yil 2 iyuldag'i 11-sonli yig'ilishi bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

8.

Fan/modul uchun mas'ul:

B.H.Boltayev -"Musiqa ijrochiligi va madaniyat" kafedrasi o'qituvchisi

9.

Taqrizchilar:

Y.R.Artikov - "Musiqa ijrochiligi va madaniyat" kafedrasi dotsent v.b

O'.X.Ramazonova - "Musiqa ijrochiligi va madaniyat" kafedrasi katta o'qituvchisi